

4. Psixolog lavozimining majburiyatlari

tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, psixologik xizmatni tashkil etish;

tashkilot xodimlari, bolalar va ota-onalar bilan ishlash rejasi asosida ishlarni tashkil etish, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixologik-pedagogik tashxis va korreksion ishlarni tashkil etish;

bola huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq shaxsiy huquqlarini himoya qilishga yordam berish va ijtimoiy ta'lim sohasini uyg'unlashtirishga yordam berish, ijtimoiy tartibsizliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik choralarni amalga oshirish;

maktabgacha yoshdagi korreksiyaga muhtoj bolalar bilan yakka ishlashni, shaxsini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish uchun turli xil psixologik (psixo-tuzatuv, reabilitatsiya va konsultatsiya) yordam ko'rsatish bo'yicha choralar ko'rish;

pedagogik xodimlarni, shuningdek, ota-onalarini maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolariga yo'naltirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarining materiallari asosida psixologik va pedagogik xulosalar tuzish;

5-7 yoshgacha bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bolalarni diagnostik tekshirishdan o'tkazish, ularning ijtimoiylashishga, umumiy o'rta ta'lim maktabida 1-sinfda o'qishga va moslashishiga psixologik tayyorgarligini aniqlash va tegishli xulosani rasmiylashtirish hamda ota-onalarga tavsiyalar berish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsi va jinsiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarbiyalash dasturlarini rejalashtirish, shuningdek, rivojlantirishda qatnashish, hayotning turli xil holatlarida o'z taqdirini belgilashga tayyor bo'lishlariga yordam berish;

pedagogik, metodik kengashlar faoliyatida, ota-onalar bilan uchrashuvlarni o'tkazishda qatnashish, turli yoshdagi iqtidorli va salohiyatli bolalarni aniqlash maqsadida ular bilan hamkorlik qilish va turli psixologik metodlarni qo'llash, ularning iqtidorlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilash;

pedagogik jamoa bilan tarbiyalanuvchilarning aqli va idroki hamda shaxs sifatida rivojlanishini pedagogik-psixologik tashxislar va korreksiyalarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan metodik seminarlar, psixologik treninglar o'tkazish;

amaliyotda tarbiyalanuvchilar, ota-onalar hamda tashkilot xodimlarini pedagogik-psixologik tashxislar metodikalaridan (anketalar, psixologik testlar, shaxsiy so'rovnomalar va h.k.) to'g'ri foydalanish va olingan natijalarning maxfiyligini ta'minlash;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalarini aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, odob-axloq, jamoa shartnomasi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolalarni oilada rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarga psixologik ko'maklashish va maslahatlar berish, tashkilotda ota-onalar uchun amaliy yig'ilishlar uyushtirish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.